



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IFODALI O'QISHNI SHAKLLANTIRISH

Xidirova Gulshoda

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi


Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish malakalarini shakllantirishning mazmuni, ahamiyati va samarali usullari yoritilgan. Unda ifodali o'qish orqali o'quvchilarning o'g'zaki nutqi, tafakkuri va badiiy matni idrok qilish qobiliyatini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar va amaliy mashqlar, hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ifodali o'qish, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, intonatsiya, mantiqiy urg'u, pedagogik mahorat, og'zaki nutq, o'qish malakalari, pedagogik metodlar, amaliy mashqlar.*

Kirish

Boshlang'ich ta'lim - bu kelajak poydevoridir. Bo'lajak pedagog sifatida kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, bugungi o'quvchilar axborotga boy davrda yashamoqda, ammo ularning badiiy matn bilan til topishishi hamon dolzarb muamo bo'lib kelmoqda.

Ifodali o'qish - bu shunchaki matni texnik jihatdan talaffuz qilish emas, balki so'zlar yordamida badiiy obrazlar va his tuyg'ularni jonlantirish, ya'ni "so'zlar yordamida rasm chizish" san'atidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning obrazli tafakkuri kuchli bo'lganligi sababli, ularga ifodali o'qish malakalarini shakllantirish jarayonida shunchaki an'anaviy o'qitish usulidan ko'ra o'quvchining obrazli tasavvur imkoniyatlarini kengaytirish va badiiy matnga emotsional-estetik munosabatini rivojlantiruvchi interfaol metodlarni qo'llash yanada yuqori natija beradi. Pedagogik kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, o'quvchi matndagi voqealarni o'z ichki dunyosida jonli tasavvur qila olsa, intonatsiya, mantiqiy urg'u va pauzalar suniy ravishda emas, balki matn mazmunidan kelib chiqqan holda tabiiy va erkin shakllanadi. Shu boisdan, ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchining psixologik holati va idrok etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish boshlang'ich ta'lim tizimida murakkab, ammo zarur pedagogik jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o'quvchining nafaqat o'qish texnikasini, balki uning nutqiy, estetik va tafakkuriy rivojlanishini ham o'z ichiga oladi. Shu bois ifodali o'qishga o'rgatish jarayoni kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Avvalo, o'quvchilarda to'g'ri, ongli va ravon o'qish malakalari shakllantiriladi. Bu bosqich ifodali o'qishning poydevori hisoblanadi. O'quvchi matn mazmunini anglab yetgan taqdirdagina undagi hissiy rang-baranglikni sezadi va uni nutqi orqali ifodalay oladi. Shu nuqtai nazardan, matn ustida ishlash jarayonida leksik va semantik tahlilga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

alohida e'tibor qaratish zarur. Keyingi bosqichda o'quvchilarga intonatsiya, mantiqiy urg'u, pauza kabi ifodali o'qish elementlari tushuntiriladi. Bunda o'qituvchi namunali o'qish orqali o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi. O'quvchilar esa eshitish, taqqoslash va takrorlash orqali ushbu ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'zlashtiradilar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining ifodali nutqi o'quvchilar uchun eng samarali o'rnak vazifasini bajaradi. Shuningdek ifodali o'qishni rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rollarga bo'lib o'qish, sahnalashtirish elementlaridan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bunday metodlar orqali o'quvchi matn mazmunini nafaqat anglaydi, balki uni his etadi, obrazlarni ichki kechinmalari orqali qabul qiladi. Shuningdek, amaliy mashqlar tizimi ham ifodali o'qish malakalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, bir xil matnni turli kayfiyatda o'qish, gapdagi asosiy fikrni aniqlab, unga mantiqiy urg'u berish, pauzalarga amal qilish kabi mashqlar o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantiradi. She'riy matnlar ustida ishlash esa ritm, ohang va talaffuz aniqligini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hissiy jihatdan ta'sirchan bo'lganliklari sababli, ular bilan ishlashda rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratish muhimdir. Har bir o'quvchining o'ziga xos nutq sur'ati va qabul qilish darajasi mavjud bo'lib, o'qituvchi differensial yondashuv asosida ish olib borishi lozim. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham ifodali o'qish samaradorligini oshiradi. Audio yozuvlar, videomateriallar, badiiy asarlarning professional ijrolari o'quvchilarda eshitish orqali o'rganish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa ularning nutqidagi intonatsion boylikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish malakalarini shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik faoliyatni talab etadi. Ifodali o'qish o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, tafakkurini boyitish va badiiy matnni chuqur anglashida muhim vosita hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, darsni samarali tashkil etishi, zamonaviy metodlardan foydalanishi hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Natijada, o'quvchilarda nafaqat to'g'ri va ravon o'qish, balki matnni his etgan holda ifodali yetkazib berish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishlari uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Nosir" nashriyoti, 2009.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2. Matchonov S. Maktabda adabiy ta'lim tizimi va metodikasini takomillashtirish. – Toshkent: "Fan", 1998.

3. Abdullayeva Q., Yusupova M. O'qish metodikasi. – Toshkent: "Universitet", 2001.

